

### 113. Berilgan uzunlikda kesma chizish

kesmaning oxirlari  
detsimetr  
santimetr  
chizg'ich



3		9	16
		7	13
8			16
12	16	17	




**Berilgan uzunlikda kesma chizish uchun:**

- 1) nuqta qo'ying;
- 2) chizg'ichning 0 dan boshlangan uchini shu nuqtaga qo'ying;
- 3) kerakli uzunlikni ikkinchi nuqta bilan belgilang;
- 4) ikkala nuqtani to'g'ri chiziq yordamida tutashtiring.



1. Shakllarni guruhlarga ajrating.



2. Berilgan nuqtalardan boshlab kesmalar chizing.

$AB = 7\text{cm}$

$MK = 5\text{cm}$



3. Uzunligi 8 cm ga teng bo'lgan  $AB$  kesma chizing. Shu kesmadagi  $A$  nuqtadan 4 cm ni o'lchab,  $C$  nuqtani qo'ying.  $AB$  kesma uchun  $C$  nuqta nimani bildiradi?

## 113. Berilgan uzunlikda kesma chizish



4. Namunaga qarab yozing.

$32\text{ cm} = 30\text{ cm} + 2\text{ cm}$	$41\text{ dm} = \square\text{ dm} + \square\text{ dm}$
$54\text{ cm} = \square\text{ cm} + \square\text{ cm}$	$12\text{ dm} = \square\text{ dm} + \square\text{ dm}$
$92\text{ cm} = \square\text{ cm} + \square\text{ cm}$	$63\text{ dm} = \square\text{ dm} + \square\text{ dm}$

Kesmani o'lchashni 0 dan boshlash kerak.



5.  $AB$  kesmaning uzunligi  $27\text{ cm}$ ,  $BC$  kesmaning uzunligi esa  $6\text{ cm}$  kichik.  $AC$  kesmaning uzunligi nimaga teng?



6. Bolalar muzeyga borishdi. Anvar Kamoladan oldin keldi, Lola esa Kamoladan keyin keldi. Qodir Loladan kech keldi, lekin Malikadan oldin keldi. Ulug'bek Anvardan oldin keldi, Botir esa Kamola bilan birga keldi. Kim hammadan oldin va kim hammadan keyin kelgan?

